



PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Kejayeva Gulchexra Ma'rufjonovna

Buvayda tumani 15-maktab psixologi

Annotatsiya: Inson qaysi kasb sohibi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham bolalarni sevs, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O'qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi.

Kalit so'zlar: *Kompetensiya, kompetentlik interfaol metod, kommunikativ kompetensiya axborot bilan ishlash shaxsiy kompetentlik differentsial va individual yondashuv, masala, mashq, darslik, o'quv jarayoni, nazorat.*

KIRISH

Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Inson qaysi kasb sohibi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham bolalarni sevs, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O'qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qo'lida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o'quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi "to'ti"ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishlovchi, o'zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy



bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta'minlaydi.

Interfaol usullarda o'qituvchi o'quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog'i, fan asoslarini egallashga yo'naltirmog'i, qiziqish, mehr uyg'otish bilan shug'ullanadi. Yangi pedagogik texnologiya dars o'tish usullari va shakllarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qitishning innovasion, nostandart(interfaol) shakllari kompyuterli o'yinlar, intrenetdan foydalanish, elektron darsliklar bilan turli usullarda yangi mavzuga ko'proq e'tibor qaratish, o'qitishni suhbat, o'yin, musobaqa, sahna ko'rinishli, musiqali, savol-javob, aqliy hujm, mushoira sayyohat, intervyu, tijorat, bahs-munozara kabi usullarda dars o'tishni talab qiladi. Darsning borish jarayonida ta'limiy metodlar va usullar almashina boradi. Noan'anaviy darsda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi o'quvchi bilan yakkama-yakka, interfaol usulida harakat qiladi. Kompetentlilik-(lotincha:competens-layoqatli, qobiliyati bor) Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya





- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

2. Axborot bilan ishlash

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio(audio–video yozuv) telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
- media vositalaridan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda mediamadaniyatiga rioya qilish;
- ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi

- shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o'qib o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;



- o'z xatti-harakatini advokat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;
- o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Kompetensiya turlari, kvalifikasiya va kompetensiya

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

- 1.Kasbiy.
- 2.Shaxsiy.
- 3.Umuminsoniy.
- 4.Ma'daniy.
- 5.Maxsus.

Shaxsiy kompetentlik nima? izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Kompetentsiya - bu har qanday fan sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalar yig'indisidir.

Pedagogikada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarbiya, o'qitish va ta'lim faoliyati jarayonida talabalar bilan birgalikda ularning ta'lim samaradorligini oshirish uchun muammolarni mohirona hal qilish qobiliyatidan iborat.

XULOSA

Kompetentsiya berilgan vazifani bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini ta'minlovchi, olingan ko'nikma, bilim va tajribaga asoslanadi. Masalan, tarjimonning kundalik ishida foydalanadigan tilni bilish darajasi. Kompetentlik o'qitish yoki orttirilgan tajriba natijasida ilgari shakllangan kompetentsiyaga asoslanadi va ma'lum bir shaxsning xususiyatlarini,





shuningdek, uning yuqorida tavsiflangan vazifalarni yoki faoliyatni bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Селевко Г.К. 1.Бўрибоев А. А. Профессионал таълимда “Нефт ва уни кайта ишлаш” мавзусини ўқитишда интерактив методлардан фойдаланиш методологияси

//Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

2. Бўрибоев А. А. Олий таълим тизимидаги ўқув фаолиятини ташкил этишда мустақил ишларнинг роли //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1051-1055.

3. Бўрибоев А. А. Кимё фанидан мустақил ишларни ташкил қилишда кўп танловли тест топшириқларидан фойдаланиш //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 875-880.

4. Bo'riboev A. A., Xakberdiyev S. M. Kimyo fanini o'qitishda individual va differentsial yondashuv //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 348351.

5. Бўрибоев А. А., Хакбердиев Ш. М. Олий таълим муассасаларида кимёвий лаборатория машғулотларини такомиллаштиришнинг ўрни //Science and

Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 352-355.